

BOLALAR PSIXIK RIVOJLANISHI, PSIXODIAGNOSTIKA TUSHUNCHASI

Turg`unova Muazzam Zuhridin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishini

1-kurs talabasi

Elektron pochta: turgunova.muazzam@gmail.com

Badritdinova Madina Baxromovna

Namangan davlat pedagogika instituti, PhD, dotsent

Annotatsiya: Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika bugungi kunda ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy sohalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, ta'lim mazmunining yangilanishi va bolalarga bo'lgan e'tiborning ortishi natijasida bolalarning ruhiy rivojlanishini chuqur o'rganish zarurati kuchaydi. Ayniqsa, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning psixik jarayonlari, individual xususiyatlari hamda ijtimoiy moslashuvi psixologik tadqiqotlarning asosiy obyektiga aylandi. Ushbu maqolada bolalar psixologiyasi mazmuni, uning asosiy yo'nalishlari, shuningdek, psixodiagnostikaning bolalar bilan ishlashdagi o'rni va ahamiyati keng yoritiladi.

Kalit sozi: Psixik rivojlanish, Ontogenez, Yosh davrlari, Bilish jarayonlari, Diqqat, Xotira, Tafakkur, Nutq rivoji, Emotsional rivojlanish, Ijtimoiylashuv, Faoliyat (o'yin, ta'lim, mehnat), Individual farqlar, Yetakchi faoliyat

ПСИХИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ. ПОНЯТИЕ ПСИХОДИАГНОСТИКИ

Тургунова Муаззам

Студентка 1 курса направления «Дошкольное образование»

Педагогического факультета

Наманганского государственного педагогического института.

Электронная почта: turgunova.muazzam@gmail.com

Бадритдинова Мадина Бахромовна

Наманганский государственный педагогический институт

кандидат наук, доцент

Аннотация: Детская психология и психодиагностика в настоящее время приобретают особую значимость в системе образования, здравоохранения и социальной сфере. В результате развития общества, обновления содержания образования и усиления внимания к детям возросла необходимость глубокого изучения психического развития ребёнка. Особенно психические процессы, индивидуальные особенности и социальная адаптация детей дошкольного и школьного возраста стали основным объектом психологических исследований. В данной статье широко освещаются содержание детской психологии, её основные направления, а также роль и значение психодиагностики в работе с детьми.

Ключевые слова: Психическое развитие, онтогенез, возрастные периоды, познавательные процессы, внимание, память, мышление, развитие речи, эмоциональное развитие, социализация, деятельность (игра, обучение, труд), индивидуальные различия, ведущая деятельность.

MENTAL DEVELOPMENT OF CHILDREN. THE CONCEPT OF PSYCHODIAGNOSTICS

Turgunova Muazzam

1st-year student of the “Preschool Education”

program Faculty of Pedagogy

Namangan State Pedagogical Institute.

E-mail: turgunova.muazzam@gmail.com

Badritdinova Madina Bahromovna

Namangan State Pedagogical Institute

PhD, Associate Professor

Abstract: Child psychology and psychodiagnostics currently play an important role in the education system, healthcare, and social sectors. As a result of social development, the modernization of educational content, and increased attention to children, the need for in-depth study of children's mental development has significantly grown. In particular, the mental processes, individual characteristics, and social adaptation of preschool and school-age children have become the main focus of psychological research. This article highlights the content of child psychology, its main directions, as well as the role and significance of psychodiagnostics in working with children.

Keywords: Mental development, ontogenesis, age periods, cognitive processes, attention, memory, thinking, speech development, emotional development, socialization, activity (play, learning, labor), individual differences, leading activity.

Hozirgi davrda bolalar psixologiyasida yosh davrlarini to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga ega. Odatda, quyidagi asosiy davrlar ajratiladi:

go'daklik, ilk bolalik, maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi va o'smirlik davri. Har bir davr o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, bolaning rivojlanish sur'ati va yo'nalishi aynan shu davrlarda shakllanadi[1].

Masalan, maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyati yetakchi faoliyat hisoblanadi. O'yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi va nutqi rivojlanadi. Kichik maktab yoshida esa o'quv faoliyati asosiy o'ringa chiqadi. Bu davrda bolaning diqqat va tafakkuri rivojlanib, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. O'smirlik davrida esa shaxsiy o'zini anglash, mustaqillikka intilish va ijtimoiy munosabatlarga ehtiyoj kuchayadi.

Psixodiagnostika esa – bu shaxsning psixologik xususiyatlarini maxsus metodlar va testlar yordamida aniqlash jarayonidir. Bolalar bilan ishlashda psixodiagnostika alohida ahamiyatga ega, chunki u bolaning intellektual darajasi, emotsional holati, shaxsiy sifatlari va ijtimoiy moslashuvini baholash imkonini beradi. Psixodiagnostikaning asosiy maqsadi – bolaga to‘g‘ri psixologik yordam ko‘rsatish va ta‘lim-tarbiya jarayonini individual xususiyatlarga moslashtirishdan iborat[2].

Bolalar psixodiagnostikasida kuzatish, suhbat, anketa, test va eksperimental metodlar keng qo‘llaniladi. Har bir metod bolaning yoshiga, rivojlanish darajasiga va individual xususiyatlariga mos ravishda tanlanishi lozim. Aks holda, olingan natijalar ishonchsiz bo‘lishi mumkin.

Bolalar psixodiagnostikasida qo‘llaniladigan metodlar amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biri bu kuzatish metodidir. Kuzatish orqali bolaning tabiiy sharoitdagi xulq-atvori, muloqoti va hissiy holati o‘rganiladi. Suhbat metodi esa bolaning ichki kechinmalari, qiziqishlari va muammolarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Test metodlari psixodiagnostikaning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Intellektual testlar bolaning aqliy rivojlanish darajasini aniqlashga xizmat qilsa, shaxsiy testlar uning xarakteri va temperamentini o‘rganishga yordam beradi. Proyektiv metodlar esa bolaning yashirin hissiy holatlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, rasm chizish testlari orqali bolaning ichki dunyosi va emotsional holati haqida muhim ma‘lumotlar olish mumkin.

Psixodiagnostikaning ta‘lim va tarbiyadagi ahamiyati. Psixodiagnostika natijalari pedagoglar va ota-onalar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Ushbu natijalar asosida bolaning qobiliyatlari, qiziqishlari va rivojlanishdagi qiyinchiliklari aniqlanadi. Bu esa individual yondashuvni amalga oshirish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va bolani qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi[5].

Shuningdek, psixodiagnostika inklyuziv ta‘limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus ehtiyojga ega bolalarning psixik rivojlanishini to‘g‘ri baholash ularning jamiyatga moslashuvini yengillashtiradi va rivojlanish uchun qulay sharoit yaratadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bolalar psixik rivojlanishi va psixodiagnostikasi to‘g‘ri rivojlantira bilish, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu maqola orqali bolalarning psixik xususiyatlari chuqur o‘rganish, ta‘lim-tarbiya jarayonida individual va samarali yondashuvlar haqida aytib otilgan. Zamonaviy jamiyat sharoitida bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Shuning uchun Bolalar psixik rivojlanishi, Psixodiagnostika tushunchasini chuqur o‘rganish va amaliyotda samarali qo‘llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Vigotskiy L.S.** *Psixik rivojlanishning yoshga oid nazariyalari.* — Moskva: Pedagogika, 1996.
2. **Elkonin D.B.** *Bolalar psixologiyasi.* — Moskva: Akademiya, 2001.
3. **Nemov R.S.** *Psixologiya: Psixodiagnostika.* — Moskva: Vlados, 2003.
4. **Ananyev B.G.** *Insonni bilish muammolari.* — Sankt-Peterburg: Piter, 2001.
5. **G‘oziyev E.G‘.** *Umumiy psixologiya.* — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.